

Dilrabo HAMIDOVA

ҚИЗҒАЛДОҚ ҚУВОНЧИ
Sh'erlar


Qarsi
"Nasaf" nashriyoti
2005

84(59)6-5

Hayotdagi har bir ezgu fikr she'rga aylanadi. Ayniqsa, undan hayratlangan va kuch olgan mitti qalb kuylashga tushadi. Diltirabo ham ana shunday hayrat egalaridan. U hayotimizda yuz berayotgan voqealarni zukkolik bilan kuzatadi va xulosa chiqarishga intiladi.

Muharrir: Yo'ldoshbek KENJA

1031456
0.81



H 4702620202- 336 336-2005
376 (04) 2005

© D. HAMIDOVA - 2005

ISBN 5-7323-0505



YOSH IJODKOR

Dilrabo Hamidova Quddus qizi 1991-yil 10-mayda Shahrisabz tumanining Polmon qishlog'ida tug'ilgan. Ayni kunlarda Muhammad Ali Qushchi nomli 1-ixtisoslashgan litsey-internatining 7-sinf o'quvchisi. Uning she'rlarida ona

Vatanga bo'lgan muhabbat, farzandlik burchi va mas'uliyati ajib bir samimiyat bilan tarannum etiladi.

O'ZBEKISTON

Tabiati go'zal bag'ri keng elim,
Faqat sen o'zingsan chamanistonim.
Mening qo'shiqlarim senga atalur,
O'zing yagonasam, O'zbekistonim.

Bog'ingda bulbuling sayrar tinmayin,
Qadim ona shahrim-hur gulistonim.
Amir Temur ruhi kezadi mayin,
Sening quchog'ingda O'zbekistonim.



Ulug' ajdodlardan meros har go'shang,
O'zing shahristonim, o'zing bo'stonim.
Senga atab she'rlar bitadi qizing,
Sen go'zal elimsan, O'zbekistonim.

Ko'plab ulug' zotlar o'smish bag'ringda,
Hovuch tuprog'ingga sadqa bu jonim.
Bobur zor yig'lagan sening hajringda,
Daholar maskani, - O'zbekistonim.

Madhingni kuylayman har nafas, har dam,
Go'yo onamdaysan, sen mehribonim.
Mening kindik qonim to'kilgan go'sha,
Aziz ona yurtim - O'zbekistonim.

Tabiati go'zal bag'ri keng o'lkam,
Faqat sen o'zingsan chamanistonim.
Mening qc'shiqlarim senga atalur,
O'zing yagonasan, O'zbekistonim.





YO'QDIR QIYOSI

Dalada sezilar bahor nafasi,
Bog'larda yangraydi bulbul navosi.
Daraxtga yarashib turmish libosi,
Go'zal navro'zimning yo'qdir qiyosi.

Bobo quyosh zarrin nurin sochadi,
Chamandagi gullar dilni ochadi.
Jajji kapalaklar tinmay uchadi,
Go'zal Navro'zimning yo'qdir qiyosi.

Tabiatni bezar rning-minglab gullar,
Ular orasida ajoyib xillar.
Ta'riflamoq uchun oqizdir tillar,
Go'zal navro'zimning yo'qdir qiyosi.

Bahorning havosi naqadar qiziq,
Ba'zida yomg'irli, ba'zida issiq.
Barchaga shodonlik qiladi tortiq,
Go'zal Navro'zimning yo'qdir qiyosi.





KONSTITUTSIYA

Konstitutsiya davlatning,
Eng asosiy Qonuni.
Burchlar va huquqlardan,
Tashkil topgan mazmuni.

Bu ulug' so'z aslida,
Lotinchadan olingan.
Qoida va nizom deb,
Tarjima ham qilingan.

Eng qadimiy vatani,
Rim nomi bilan mashhur.
Konstitutsiyani bilish,
Har bir kishiga zarur.

Konstitutsiya bizlarning,
Asosiy Qonunimiz.
Biz uni yodda tutsak,
Gullab, yashnar yurtimiz.



BUVIJON

Qutluq' bo'lsin, buvijon
Oltmish yoshga yetibsiz.
Gulmi desam, buvijon
Quyosh kabi kulibsiz.
Ko'zim nuri, buvijon,
Qalbim qo'ri, buvijon.

Bugun baxtli kuningiz,
Qutlar o'g'il qizingiz.
Hikmat har bir so'zingiz,
Mehribonim, buvijon
Shakarginam, buvijon.



VATAN

Vatanning tuprog'i aziz, muqaddas,
Unda mujassamdir mehr va sog'inch.
Yurtini sevmagan gar bo'lsa inson,
Ayting, kulbasida qanday yashar tinch?.

Qalbiga qadrdon, asli nima bor?
Hammasi Vatanda doimo bisyor.
Elidan, yurtidan ayrilgan nomard,
Uning tuprog'iga bir kun bo'lar zor.

Hech inson yurtini yovga sotmasin,
Tuhmat toshin eliga zinhor otmasin.
Mabodo Vatanga xiyonat qilsa,
Hech qachon bizlardan shafqat kutmasin.



SHAHNISABZ

Shahnisabz - mening jon-tanim,
Mo'jizalar koni - Vatanim.
Bog'larida bulbullar sayrar,
Unda kezgan har jonki yayrar.

Har qadaming gulga ko'milar,
Suvlarida qushlar cho'milar.
Borib ko'ring obidalarin,
Ko'kgumbazu, Oqsaroylarin.

Chiroyiga ha'ron qolasiz,
Do'stingizga doston qilasiz.
Har so'zingiz bolga aylanar,
Afsuniga ko'ngil boylanar.



HAKAM

Futbol o'ynash ahdimiz,
Va dildagi shahdtimiz.
Futbolda boshchi akam,
Futbolchilarga hakam.

To'qson minut maydonda
Tinim bilmay chopadi.
G'irromlik qilganlarning
Aybini tez topadi.





ONAJON

Siz dunyoga keltirib,
O'stirdingiz, onajon.
Oq-qorani tanitib,
Uqtirdingiz, onajon.

Har so'zingiz bol kabi,
Mehr berar yurakka.
Bunchalar boy ekansiz,
Onajonim, ertakka.



BOBOJONIMNI ESLAB

Bugun oy-u yulduzlarga, gullarga yorman,
Lekin aziz bobojonim mehriga zorman.
Kechalari uxlaymay, tunlar bedorman,
Bobojonim bizni tashlab qayga ketdingiz?

Hovlidagi dov-daraxtlar sizni so'raydi,
Har bahorda boshlariga oqlar o'raydi.
Yuraklarga iztiroblar solib ketdingiz,
Bobojonim, bizni tashlab qayga ketdingiz?

Men boshqalar kulgusiga qo'shilib kuldim,
Lekin ko'plab g'am-g'ussaga to'ldi yosh ko'nglim.
Yuragimda sizga mehrim edi limmo-lim,
Bobojonim, bizni tashlab qayga ketdingiz?





MENING MAHALLAM

Obod mening mahallam,
Ko'chalari keng ko'rkam.
Nomi ham go'zal - Polvon,
Odamlari pahlavon.

Avallari bu joyni,
Farmon deya atashgan.
Shu ismli insonga,
Zo'r ixlos-la qarashgan.

Ismiga monand Farmon,
Berilsa biror ishga.
Ezgulik ila mu'dom,
Rahnamo bo'lgan har on.

Shundanmi bu mahallam,
Odamlari ko'p ahil.
Ko'chalari xo'p ko'rkam,
Yashashadi bir bag'ir.



YANGI YIL

Oppoq sepini yoyib,
Kumush qish yetib keldi.
Xushnud qilib dillarni,
Dala-bog'larga yeldi.

Ko'cha-ko'yda bolalar,
Qorbo'ron o'ynab kuldi.
Yangi yil kirgan kecha,
Dillar quvonchga to'ldi.

Davraning o'rtasida,
Chiroy bo'lmish ko'k archa.
Qorboboni kutardi,
Baxtdan entikkan barcha.

Qorboboning sovg'asi,
Hammaga yetib ortdi.
Ukamga olay desam,
Qorqizi qopni tortdi.

Qizg'onchiq bo'lish yomon,
Dedi ming'irlab onam.
Hamma kulib yubordi,
Boqishib bizlar tomon.



ARDOQLI QIZ BO'LAMAN

Azizu, muqaddas ona xalqimning,
Barcha fuqarosin hurmat qilaman.
Ularning qalbidan birdek joy olib,
Yurtimning ardoqli qizi bo'laman.

Qalam tebrataman unga bag'ishlab,
Qadamda nomini tilga olaman.
Barcha ustozlarim ishonchin oqlab,
Yurtimning ardoqli qizi bo'laman.

Qalbimda jo'sh urgan Vatan mehrini,
Bor ovozim bilan bayon qilaman.
Yurtdoshlar, tengdoshlar, opa-akalar,
Yurtimning ardoqli qizi bo'laman.



BIRINCHI QOR MUBORAK

Osmonda suzib bulut,
Zo'r qordan berar darak.
Qor yog'adi par kabi,
Birinchi qor muborak!
Kaftin tutar bolalar,
Tutmoqchiday kapalak.
Sizga ham aziz do'stlar,
Birinchi qor muborak!
Qarang dala-dashtlarga,
Oq to'n kiydirdi falak.
Yo'lingizga to'shalgan,
Birinchi qor muborak!





RAHIMA OYIM

Muallim haqida gap ochsam har doim,
Ko'z o'ngimga kelar so'zi muloyim
O'qish va yozishni o'rgatgan inson,
Maktabimizning faxri Rahima oyim.

Men ham o'qib birkun olim bo'laman,
Muallimdek katta baxtga to'laman.
Qo'lim kuksimdadir, sizgadir ta'zim,
Doim onon bo'ling aziz muallim.



NAVRO'Z

Navro'z keldi yurtimga,
Bahoroyni yetaklab.
Tog'u-toshlardan yelib,
Turfa gullar etaklab.

Salom berar navro'zoy,
Sog'indi, deb hoynahoy.
Dasta gullar uzatar,
Yurtimizni bezatar.

Daraxtlar ham intiqib,
Navro'zni kutishadi.
Unga atab shoirlar,
Ko'p she'rlar bitishadi.

Hofizlar, bastakorlar,
Navro'z, deb qo'shiq kuylar.
Ko'klamda ko'p bo'ladi,
Quvnoq bayram va to'ylar.



ATIRGUL

Atirgulim-atirgul,
Senga oshiqdir bulbul.
Ranging qizil shotutday,
Ko'rib quvonar ko'ngil.

QIZG'ALDOQ

Dalalarning erka tilagi o'zim,
Bahoroyning yoniq yuragi o'zim.
Navro'zlardan keltirdim xabar,
Adirlarga taqib gulchanbar.





LIMON

Mening nomimdir limon,
O'rtog'im ko'p jonajon.
Quyoshga ham o'xshayman,
Kuz faslida pishgayman.

BODOM

Bahor kelmay gullayman,
Salomimni yo'llayman.
Qish tugamay gul bahor,
Boshlanar deb o'ylayman.





KARAM

Mening to'nimdir qat-qat,
Bargimdan shirin ovqat.
Tanga kuch berar shiram,
Shundandir nomim karam.

O'RIK

G'arq pishipdi shoxdor o'rik,
Mevalari bir ham yirik.
Atrofida o'ynaymiz biz,
Qo'shiq aytib quvnaymiz biz.





OLMA

Men olmaman, bilsangiz,
Siz meni yeb ko'rsangiz.
Ko'p vitamininga boyman,
Dasturxonga chiroyman.

ORZU

Orzu bilan olam munavvar,
Uning ila ko'kka uchaman.
Ona Vatan o'zim dilbanding,
Sening uchun sharaf quchaman.





TOPILMAS

Ko'pni ko'rdim, do'stdan yaxshi sirdosh topilmas,
Bu dunyoda asl do'stday dilkash topilmas.
Siz do'stlarni mitti yulduz demangiz aslo,
Samoda ham do'stday porloq quyosh topilmas.

Insonlarga taqdirdayin yo'ldosh topilmas,
Yaxshi inson o'tay desa bir tosh topilmas.
Po'latdek deb o'ylamangiz insonni zinhor,
Inson uchun xiyonatga bardosh topilmas.



KO'NGIL

Insonlarni kuydirguvchi,
Kuldirguvchi sensan ko'ngil.
Seni ta'riflamoq uchun,
Ko'p ojizlik qiladi til.

Odamlarni yaxshi yo'lga yo,
Yomon yo'lga sen boshlaysan.
Ne qilsa ham, ne bo'lsa ham,
Ko'zlarini sen yoshlaysan.

Meh'ni va muhabbatni,
Xesh-aqrabo deb bilgaysan.
Xiyonatni aks ettirib,
Kimning ustidan kulgaysan?

Insonlarni muhabbatga,
Shaydo etgan o'zingdirsan.
Men seni ko'p olqishlayman,
Bu hayotning ko'zidirsan.

Inson uchun eng qimmatli,
Tuyg'udirsan sen buni bil.
Har kishini yaxshi yo'lga,
Chorlagin, ey go'zal ko'ngil.



DUNYO

Kimlargadir shodlik, kimga baxt berding,
Mening yosh qalbimga chiroq yoq, dunyo.
Har kishiga ulug' bir tuyg'u berding,
Endi mening dilimga bir bor boq, dunyo.

Ko'p kishilar hayotdan bahra oladur,
Kimlarningdir toqati doim toq, dunyo.
Yaxshilardan obod vatan qoladur,
Endi mening dilimga bir bor boq, dunyo.

Halol yashaganlar doim oaxtiyor,
Ular uchun sira xatar yo'q, dunyo.
G'animlarga esa ishbu zamin tor,
Endi mening dilimga bir bor boq, dunyo.





MUALLIM

Har inson shoirmi yo mutafakkir,
Faqat bir kishidan oladi ta'lim.
Ko'zlarida mehr-muhabbat bilan,
Ilm berar ularga, aziz muallim.

Maktabga keldi jajji bolakay,
Nozik qo'llarida qalam va daftar.
Mitti qalblarida ming bitta hayrat,
Ushatib bermasang nonin tishlolmas.

Ayting, mana shunday mitti bolaga,
Alifbodan saboq bera olgan kim?
So'zlaridan qalblar oshifta doim,
Albatta, muallim, faqat muallim.

Muallim bir ulug' zotki shundayin,
U tinmay sabr ila qiladi mehnat.
Xuddi igna bilan quduq qazgandek,
Insonning ongida qurar inshoot.



SIZGA TA'ZIM

Onajonlar, sizga ta'zim,
Mehribonlar, sizga ta'zim.
Oq sut berib katta qilgan,
Nur jahonlar, sizga ta'zim.

Kechalari yig'laganda,
Alla aytib ovutdingiz.
Bag'ringizga bosib bizni,
Shu kunlarga yetkazdingiz.



ONA YER

Yomonlarni yiroq qilding bag'ringdan,
Insofsizlar yig'lab o'tdi qahringdan.
Yaxshilarga bo'lding juda mehribon,
Shunga ko'ra ular eng baxtli inson.

Tuprog'ngni ko'zlariga aylab to'tiyo,
Surtib, o'pib senga bo'lib mahliyo.
Hurmat ila Ona yer deb atashgan,
Qarich yering uchun yov-la talashgan.





DADAJONIM

Dadajonim, mehribonim, azizsiz,
Bizni boqib katta qilgan o'zingiz.
Bizlar sizni yaxshi ko'ramiz jondan,
Bergan tuzingizni oqlaymiz dildan.





KELDI NAVBAHOR

Bahorim, keldingmi turfa gul bilan,
Biz uchun bitilgan borliqni olib.
Qishning izg'irinli sovuq kunlarin,
Quvib yubordingmi oldinga solib.

Atrofda daraxtlar qiyg'os gullagan,
Bizni xursand qilar bahor shamoli.
Endilikda albat ko'karib chiqar,
Dehqon bobomizning jajji niholi.



MUNDARAJA

O'zbekiston.....	3
Yo'qdir qiyosi.....	5
Konstitutsiya.....	6
Buvijon.....	7
Vatan.....	8
Shahrisabz.....	9
Hakam.....	10
Onajon.....	11
Bobojonimni eslab.....	12
Mening mahallam.....	13
Yangi yil.....	14
Ardoqli qiz bo'laman.....	15
Birinchi qor muborak.....	16
Rahima oyim.....	17
Navro'z.....	18
Atirgul.....	19
Qizg'aldoq.....	19
Limon.....	20
Bodom.....	20
Karam.....	21
O'rik.....	21
Olma.....	22
Orzu.....	22
Topilmas.....	23
Ko'ngil.....	24
Dunyo.....	25
Muallim.....	26
Sizga ta'zim.....	27
Ona yer.....	28
Dadajonim.....	29
Keldi navbahor.....	30

ADABIY – BADIY NASHR

Dilrabo XAMIDOVA

ҚИЗҒАЛДОҚ ҚУВОНЧИ
(She'rlar)

Texnik muharrir: Samandar Musayev.

Musahhih: Muso To'lagaanov.

Kompyuterchi: Aliyor Murodov.

IB № 0855

Terishga 2.01.2005 yilda berildi. Bosishga 27.04.2005 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{32}$. Gazeta qog'ozi. Ofset usulida chop etildi. Shartli bosma tabog'i 2,03. Shartli bo'yoq – ottisk 2,7. Nashr bosma tabog'i 2,0. 250 nusxada. 46-2005 –shartnoma. № 2064-buyurtma. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 730018, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 22 uy.

«Grafika» MChJ grafika korxonasida chop etildi. 730018, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 22 uy.